

**TALABALARNI MA'NAVIY AXLOQIY KOMPETENTLIGINI  
RIVOJLANTIRISHDA ABDULLA AVLONIYNING  
PEDAGOGIK QARASHLARI**

***Abdullahayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li***

*Farg'ona davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi  
(faoliyat turi bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Avloniy asarlarida tarbiyaning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Ta'lim — bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdag'i o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi

**Kalit so'zlar:** Abdulla Avloniy, bilim, malaka, tarbiya, talim, "Turkiy guliston yoxud axloq "asari, pedagogik qarashlar..

Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiyligi ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyatni taraqqiyotining turli bosqichlarida Ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan. Ta'lim mohiyat-e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatini, umuman talabaning bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni talaba faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi — o'qituvchi va ta'lim olayotgan talabalar faoliyatining yig'indisidan iborat. Ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi: kishilarning ijtimoiytarixiy tajribalari yosh avlodga Ta'lim orqali o'tadi. Ta'lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba'zi nazariyalar Ta'limni jamiyatning ijtimoiyiqtisodiy tuzilishiga bog'liq bo'lmagan hodisa sifatida baholasalar (qarang Pedotsentrizm), ba'zisi Ta'limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a'zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari karatilganligini ta'kidlaydi. Ta'limning maqsadi ob'yektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgani kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish qobiliyatları, qistuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy

munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi. Ta’lim talabaning bilish qobiliyatini o’stiruvchi asosiy omildir. Talabalar qobiliyatini o’stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo‘ladi.[2]

Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklarning mukammal yaratuvchisi sifatida ham gavdalanganligi, asarlaridagi ta'lismi va tarbiyaga doir tushunchalarning, g'oyaviy-badiiy mushohadalarining tadqiq qilinganligi, qolaversa, mavzuning dolzarbligi ma'rifatparvar adib, serqirra ijodkor Abdulla Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta'lismi va tarbiyaga doir fikrlarning dalili hikoyalari, she'riy lavhalar misolida yoxud majoziy xarakterga ega hikoyatlar asosida ochib berilishi asnosida ko'zga tashlanadi. 2017- yilning 3-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Ushbu uchrashuda madaniyat va san'at sohasida yuzaga kelgan ko'plab muammolar o'rtaga tashlandi. [1] Mazkur yig'ilishda madaniyat, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san'at sohasini tubdan isloh qilish maqsadida amalga oshiriladigan keng miqyosli ishlar xususida so'z bordi, yosh iste'dodlar tarbiyasi, madaniyatimiz va adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida yangi g'oya, tashabbus va takliflar bildirildi: "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tish zarur deb bilaman, u ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liq. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun, haqiqatdan ham, yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir." 1 Shu ma'noda Abdulla Avloniyning ta'lismi-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lismi-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni talabalar qalbida shakllantirish- da axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda. Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan asarlari va ularda axloq- odob tushunchalarining yoritilishi tarbiya masalasining ifodasi nafaqat badiiy, balki noyob tarixiy-pedagogik, ta'limiylar va qomusiy yodgorlik hisoblanadi. Avloniy asarlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yana bir bor shunga iqror bo'lamizki, uning asarlarida ifoda etilgan ta'limiylar, tarbiyaviy g'oyaviy, falsafiy pedagogik hikmatlar o'zining hayotiy mazmuni bilan bizni bugun ham hayratda qoldiradi. Avloniy asarlarining tub ma'nomohiyatini belgilab beradigan insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatan- parvarlik g'oyalari va axloq-odob tamoyilida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini alohida ta'kidlab o'tmoq joiz. [4]

Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida tavallud topgan. Ijodkor o'zbek xalqining san'ati va adabiyoti hamda milliy madaniyatini, xalq ta'limi ishlarini yo'lga qo'yishda kata xizmatlar qilgan adib, jamoat arbobi va iste'dodli pedgogdir. U birinchilardan bo'lib o'zbek teatrini professional teatrga aylantirdi.

matbuot, maorif sohasi rivojiga hissa qo'shdi. U Turkistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Avloniyning mehnati yuksak qadrlanib unga o'zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda, xodimlar tayyorlashda uzoq yillik mehnati uchun 1925-yilda "Mehnat qahramoni" unvoni, 1930-yilda "O'zbekiston maorifi zarbdori" unvoni berilgan.

Shuningdek, adib milliy ta'lif-tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo'shganligi uchun 2020-yil 30-sentyabr sanasida "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Avloniy "Usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxu d axloq" (1913), "Ikkinci muallim" (1915), "Maktab gulistoni" (1917) kabi darsliklar yaratdi. Bu asarlarida hamda publisistik maqlolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifga chorlaydi. XX asr boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning "Birinchi muallim" asari ham o'ziga xos o'ringa ega. Avloniy uni yozishda Saidrasul Aziziyning "Ustozi avval" asariga suyanadi. Avloniyning "Ikkinci muallim" asari "Birinchi muallim" kitobining uzviy davomidir. Biz birinchi kitobni shartli ravishda, alifbe deb, ikkinchi kitobni xrestomatiya deb atashimiz mumkin. Kitob maktabni olqishlovchi she'r bilan boshlanadi: Maktab sizni inson qilur,[3]

Maktab hayot ehson qilur,  
Maktab g'ami vayron qilur,  
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!  
Maktabdadur ilm-u kamol,  
Maktabdadur husn-u jamol,  
Maktabdadur milliy xayol  
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

Bu she'nda Avloniy maktabni insonning najot yo'li, hayotning gulshani, kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch deb maqtaydi. Shuning uchun tarbiya maskani ham maktab ekani ta'kidlanadi. Avloniyning ta'lif-tarbiyaga oid asarlari ichida "Turkiy guliston yoxud axloq" asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta'limiylar tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonliklardan qaytaruvchi ilm-axloq haqidagi fikr haqidagi fikr yuritiladi. Shuningdek, u bola tarbiyasining roli haqidagi fikr yuritib: "Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmak kabitidir" 3,-deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkibi to'g'risida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolalarning atrofidagi kishilar ahamiyatga ega. O'zbek pedagogikasi tarixida Avloniy- birinchi "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fanidir" deb ta'rif berganlar. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo'limga ajratadi:

- 1.Tarbiyaning zamoni.
2. Badan tarbiyasi.
3. Fikr tarbiyasi.
4. Axloq tarbiyasi hamda uning ahamiyati xususida fikr yuritadi.

"Tarbiyaning zamoni" bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini bu ishga hammani: ota-onas, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakli-gini ta'kidlaydi. Avloniy, tarbiya xususiy ish emas, milliy ijtimoiy ishdir. "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir",deb ta'kidlaydi.

Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb ta'kidlaydi adib.Tarbiya surriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan iborat bo'ladi.Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish lozimligini uqtiradi.[5]

#### **Xulosa:**

"Turkiy guliston yoxud axloq "asari ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Adib kitobda ilm haqida shunday deydi: " Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur"-deydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To'xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.[1]
2. Avloniy Abdulla. Tanlangan asarlar. “Ma’naviyat” nashriyoti. Toshkent, 2006. B. 25-26.[2]
3. Mirvaliyev Sobir. O'zbek yozuvchilari. “Sharq” nashriyoti. Toshkent, 2006. B. 23-24.[3]
4. Jalilov Z. Sharq mutafakkirlari merosini o`rganishning didaktik usullari. // Zamonaliv ta'lif. –T., 2017 yil, 5-son, 72-85-betlar[4]
5. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. -T .: "Fan", 1995 yil.[5]